

# **Uzbekistan Airways “Yashil makon” umummilliy loyihasida faol ishtirok etmoqda**

**2024 7 December**

Bugun, 2024-yil 7-dekabr kuni, “Yashil makon” umummilliy loyiha doirasida Uzbekistan Airways aviakompaniyasining rahbariyati va xodimlari Ohangaron shahrida daraxt ekish tadbirida faol ishtirok etishdi.

Tadbirda aviakompaniyaning Uzbekistan Airways Technics, Uzbekistan Helicopters, Silk Avia, Uzbekistan Airways Catering, Uzbekistan Airways Training Centre tarkibiy bo'linmalarining xodimlari ham qatnashdi.

Ta'kidlash joizki, “Yashil makon” umummilliy loyihasi O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tizimining barcha bo'linmalarida keng miqyosda amalga oshirilmoqda.











UZBEKISTAN  
AIRWAYS







